

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**THEMATIC AND ARTISTIC ANALYSIS OF HABIB SA'DULLA'S LYRICS****Shohsanam Bozorboyevna Ermanbetova***Senior Lecturer, Department of Language and Literature Education**University of Business and Science**Email: shohsanamermanbetova49@gmail.com**Tashkent, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

Key words: Habib Sa'dulla, lyrics, image of the mother, woman, love, homeland, artistic analysis, poetics, system of imagery, modern Uzbek poetry.

Received: 10.11.25**Accepted:** 11.11.25**Published:** 12.11.25

Abstract: This article analyzes the thematic and artistic features of the works of Habib Sa'dulla, a representative of modern Uzbek poetry. The study highlights how the poet expresses themes such as mother, woman, love, homeland, beauty, and human emotions with high poetic mastery. The image of the mother is interpreted as a symbol of affection, devotion, and creativity. Moreover, Habib Sa'dulla's lyrics explore the themes of woman and love through emotional subtlety, sincerity, and the reflection of the inner feelings of the human soul. The article also discusses the poet's artistic style, system of imagery, and his skillful use of contrast, parallelism, symbols, and metaphors. The research examines the poet's creative thinking in connection with the traditions of Uzbek literature.

HABIB SA'DULLA LIRIKASINING TEMATIK VA BADIY TAHLILI**Shohsanam Bozorboyevna Ermanbetova***Til va adabiyot ta'limi kafedrasi katta o'qituvchisi**University of Business and Science*shohsanamermanbetova49@gmail.com*Toshkent, O'zbekiston***MAQOLA HAQIDA**

Kalit so'zlar: Habib Sa'dulla, lirika, ona obrazi, ayol, muhabbat, Vatan, badiiy tahlil, poetika, obrazlar tizimi, zamonaviy o'zbek she'riyati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyati vakili Habib Sa'dulla ijodining tematik va badiiy xususiyatlari tahlil etilgan. Shoir lirikasida

ona, ayol, muhabbat, Vatan, goʻzallik va insoniy tuygʻular yuksak poetik mahorat bilan ifodalanganligi yoritiladi. Asarda ona obrazi mehr, sadoqat va bunyodkorlik timsoli sifatida talqin etiladi. Shuningdek, Habib Saʼdulla lirikasida ayol va muhabbat mavzulari ruhiy noziklik, samimiyat va inson qalbining ichki kechinmalarini aks ettirish jihatidan oʻrganiladi. Tadqiqotda shoirning badiiy uslubi, obrazlar tizimi, tazod, parallelizm, ramz va metaforalardan foydalanish mahorati haqida soʻz yuritiladi. Maqolada shoirning poetik tafakkuri oʻzbek adabiyoti anʼanalari bilan bogʻliq holda tahlil qilinadi.

ТЕМАТИКА И ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ АНАЛИЗ ЛИРИКИ ХАБИБА САЪДУЛЛЫ

Шохсанам Бозорбоевна Эрманбетова

Кафедра преподавания языка и литературы

Старший преподаватель

University of Business and Science

shohsanamermanbetova49@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Хабиб Саъдулла, лирика, образ матери, женщина, любовь, Родина, художественный анализ, поэтика, система образов, современная узбекская поэзия.

Аннотация: В данной статье проанализированы тематические и художественные особенности творчества современного узбекского поэта Хабиба Саъдуллы. В его лирике особое внимание уделяется образам матери, женщины, любви, Родины, красоты и человеческих чувств, которые выражены с высокой поэтической мастерством. Образ матери трактуется как символ заботы, преданности и созидательности. Кроме того, в лирике Хабиба Саъдуллы темы женщины и любви рассматриваются с точки зрения тонкости души, искренности и отображения внутренних переживаний человека. В исследовании рассматриваются художественный стиль поэта, система образов, использование антитезы, параллелизма, символов и метафор. Статья также анализирует поэтическое мышление автора в контексте традиций узбекской литературы.

Kirish. Habib Saʼdulla lirikasida Oʻzbekiston – Vatan – xalq – tabiat obrazlari umumiy uygʻunlikda ochiq bir kitobdek koʻz oʻngimizda namoyon boʻladi. Habib Saʼdulla sheʼrlarining asosiy mavzui – ona yurt, Oʻzbekiston, Vatandir.

Adabiyotda, xususan, Sharq she'riyatida ayol poetik obrazi eng asosiy timsollardan sanaladi. Ayol obrazi mumtoz g'azaliyotda go'zallik, barkamollik, muhabbat ramzi hisoblangan bo'lsa, zamonaviy o'zbek poeziyasi va nasrida mehr ramzi bo'lgan ona, sevimli inson, ma'suma, jamiyatning ilg'or, fidoyi a'zosi sifatida ko'z o'ngimizda namoyon bo'ladi. Biz tahlilga tortayotgan Habib Sa'dulla she'rlarida ayol obrazi, avvalo, ona siymosi orqali gavdalantiriladi.

Inson bolasi dunyoga kelishi bilan birinchi marta onasi uni bag'riga oladi, unga bor mehrini beradi. Ona uning ko'zlariga termulib qaraydi. Ona uni parvarishlab, katta qila boshlaydi. Farzand birinchi marta atak-chechak qilayotgan vaqtidayoq onaga qarab talpinadi. Onadan madad so'ragandek bo'ladi. Shoir mana shu holatni quyidagicha ifodalaydi:

Ko'ksiga sig'masdan quvonchi,

Qiyqirib emaklar xonada.

Bolakay oyoqqa turmoqchi,

Talpinib yolvorar onaga.

Ona – yaratuvchi, ona – mehribon. Ona g'ayratli va shijoatli. Ona aziz va mushtipar. Ona farzandi uchun har qanday ishga qodir. Ona farzandi uchun har qachon yordam qo'lini cho'zadi.

Zavqlanib go'dagin kuzatar:

Jur'at yo'q, bo'lsa-da darmoni.

Onajon qo'lini uzatar,

Oyoqqa turmoqchi o'g'loni.

Farzand ona qo'lidan najot topadi. Ona qo'lidan ushlar ekan, uning bag'riga yo'l topadi. Ona qo'lidan ushlar ekan, o'zida jur'at topadi. U butun bir olamni baxsh etishga, parvozga qanot bo'lishga tayyor.

Tirmashib onaning qo'liga,

Topadi jur'at ham najot ham.

Bir olam baxsh etar o'g'liga,

Qo'lida parvozga qanot ham.

Onaning ko'makdosh qo'llari bo'lmasa, bola oyoqqa tura olmas edi. Agar o'g'lonlar oyoqqa turmasalar, dunyoning holi ham voy bo'lar edi.

Oh, ona, qo'llaring bo'lmasa,

Oyoqqa turolmas o'g'loning.

O'g'lonlar oyoqqa turmasa,

Holi voy bo'lardi dunyoning.

Ona farzandini avaylab, voyaga etkazadi va tarbiyalaydi. Hamma qatori jamiyatning faol a'zosi aylanishni xohlaydi. Farzand voyaga etar ekan onaning ko'zlari yo'llarda nigoron bo'ladi.

Uzoq muddat yo‘l poylaydi. Shoir bu hissiyot tuyg‘ularini “Ikki maktub” nomi bilan onaga bag‘ishlaydi. Birinchi she‘rini “Onaginam” deb nomlaydi.

Yana men otlandim olis safarga,
Yana izlarimda qoldi ko‘zlaring.
Uzoq muddatlarga ketarkan har gal
Yo‘llarimni poylab toldi ko‘zlaring.

Farzandi nazarida ona bardoshli va sabri beqiyos. Farzand ham onani biror daqiqa qalbidan qo‘ymaydi. Farzand ham olis yurtlarda kezib yurishini tan oladi:

Ha, faqat yo‘llarda o‘tar yoshligim,
Olis o‘lkalarda kezib bearmon
Ey sabri beqiyos,
Ey bardoshligim
Qalbimdan qo‘ymayman seni biror on.

Farzand ham o‘z insoniyat darajalari cheklanganligini tushunadi. Ona yurt topshirig‘i bilan, tahsil taqozosi bilan, goho zarurat bilan ona qoshida bo‘lmayotganligini biladi:

Goho bilim izlab, goho zarurat,
Goho Vatan ajrin etmoq-chun ijro.
Farzanding qarshingda etolmay xizmat,
Yo‘lga talpinadi misoli daryo.

Farzand onaga o‘z baxtini yo‘llarda o‘tkazayotganligini, orzu-o‘ylari ham yo‘llarda ekanligini, do‘st suhbatini ham yo‘llarda tinglashini, ertangi yaraladigan kuylari ham yo‘llarda tug‘ilajagini ifoda etadi. Ammo bu bepoyon yo‘llar cheki ko‘rinmaydi. Balkim farzand endi umr bo‘yi yo‘llarda bo‘lar. Ehtimol, safarlarda omonatini topshirar. Mana shu fikrlarni ifodalagan farzand onadan uzr so‘ray boshlaydi:

Kechir onaginam, tinmay yo‘l yurib,
Kurash to‘lqiniga kirib boraman.
So‘nggi o‘z yo‘limga zor termultirib
Odamlar qalbiga yo‘l axtaraman.
Shoir she‘rning ikkinchi qismini “Yoningdaman” deb nomlaydi.

Farzand onaning sog‘inchini chuqur his qiladi, onaning ko‘zi yo‘llarda ekanligini biladi. Shuning uchun ham onaga tasalli bera boshlaydi. Yolg‘iz farzandi uzoqda deb kuyinishga hojat yo‘q, farzand har nafas ona bilan birga ekanligini uqtiradi. Buning uchun ona topgan mahali hovliga chiqsa bo‘ldi – farzandini tabiatning o‘zida ko‘radi. Gul hidlari dilbandini eslatadi:

Tong mahali meni eslab chiqsang hovliga,
Dimog‘ingga uruvchi gul bo‘yi menman.

Omuxtaman bag‘ring to‘lgan tong shamoliga

Qo‘shni bog‘dan eshitilgan qiz kuyi menman.

Farzand onaga tasallilar beradi. Ko‘ziga nur, ko‘nglidagi orzusiga shirin tuyg‘u, ko‘zlariga qo‘ngan uyqu ekanligini uqtiradi. Shoir she‘r oxirida o‘z fikrlari bilan onaning shuuriga, yuragiga yo‘l topishga harakat qiladi:

Tinchlik bo‘lib yuraklarga singib ketgumdir,

Shundan hayot osoyishi, qo‘nim va unum

Hayot bo‘lib o‘lim xavfin barbod etgumdir.

Onajonim shu emasmi yoningdaligim.

...Yolg‘izingni olisda deb o‘ylama zinhor .

Habib Sa‘dulla ijodi davomida muhtarama onasiga bo‘lgan hurmat va e‘tiborini bir dam ham unutmadi. She‘rlarida goh shoir, goh farzand gohi “lirik qahramon” bo‘lib o‘z muhabbatini tarannum etadi.

Shoirning yoshi bir joyga borib qolgan, sochlariga oq tushgan. Lekin u ona uchun bola va onaning tizzasiga boshini qo‘yishini xohlaydi.

Garchi kumushlanib borar sochlarim,

Garchi ellikdan ham o‘tibdi yoshim,

Ko‘ksimga sig‘masa g‘am-alamlarim,

Onam tizzasiga qo‘yarman boshim.

Odamlarning ko‘pchiligi makkaga haj safariga borsalar “Lirik qahramon” Allohdan umr tilab, onasini Ka‘bam deb tavof qiladi.

Odamlar Makkaga ucharlar, ajab,

Umr yo‘llarida qidirib savob.

Yaratgandan Sizga umr tilab,

Onajon, Ka‘bam deb etarman tavof.

Habib Sa‘dulla lirikasida g‘ayratli, shijoatli, mushtipar, mo‘tabar zot onaga bo‘lgan muhabbat bilan birga go‘zal ma‘shuqa vafodor yor, samimiy do‘st bo‘lgan yaratuvchi ayolga bo‘lgan muhabbat va hurmatni ko‘ramiz. Shoir yaratgan har bir satrda samimiy tuyg‘ular barq urib turadi.

Dunyoda ayol qalbidan nozikroq narsani uchratish qiyin. Lekin mana shu noziklik bilan bir qo‘lida beshikni tebatga, bir qo‘lida dunyoni tebratadi. Shoir Habib Sa‘dulla “Ayollar” deb nomlangan she‘rida bu mo‘tabar zotga shunday ta‘rif beradi:

Sizni madh etmagan shoir shoirmi,

Hofizmi kuylabon yonmagan hofiz.

Olam bilarmikan bir musavvirni

Husninggiz qoshida qolmagan ojiz.
Siz g'arib dunyoni bezatmoq uchun
Ko'kdan erga tushgan saxiy quyoshsiz.
Sizda jam harorat, mehr, nur kuchi,
Tiriklikka boshsiz,
Hayotga boshsiz.

Bu hayotning boshi muhabbat, erkaklarning topgan ziynati – ayol. Yigitlarning tushiga kirgan, oromini yo'qotib, hushini olgan, bitta jilva bilan ming bor kuydirgan ham ayol.

Sizmasmi yigitlar tushiga kirib,
Oromin yo'qotgan xush xayol bo'lib,
Bitta jilva bilan ming bor kuydirib,
So'ng orom baxsh etgan juft, ayol bo'lib.

Ayniqsa, ayolni ona deb e'zozlash, uni ko'klarga ko'tarish yaxshi fazilatdir. Yor deb, singil deb kaftlarda ko'tarish – olijanoblik:

Ona deb bosh uzra ko'taramiz, oz,
Yor deb kaftlarda tutamiz, bu kam.
Singillar yo'liga solsak poyandoz,
Qizlar kiprigida ko'rmasaydik nam.

Ayol sha'niga qanchadan-qancha maqtoqlar aytish, boshidan duru-zar sochish mumkin. Ayol borki, olamga hech qanday balo yo'lamaydi. Ammo ayol qahridan Xudoning o'zigina asrasin:

Bizlarga jon bo'lib yaralgansiz siz.
Bizlar yaralganmiz Sizlarga fido.
Siz bor balolardan qo'rqmagaymiz biz,
Ammo qahringizdan asrasin Xudo.

Ishq-muhabbat – adabiyotning abadiy va qo'hna mavzusi. Barcha zamonlarda ham bu mavzu shoirlar ijodida asosiy o'rinni egallab kelganligi hech kimga sir emas. Ayniqsa, mumtoz Sharq adabiyotida alohida zavq-shavq bilan qalamga olingan bu ko'hna mavzu Habib Sa'dulla she'riyatida ham o'zining takrorlanmas qirralari bilan bo'y ko'rsatgan. Muhabbat mavzusidagi she'rlarida shoirning “men”i orqali oshiqning ichki kechinmalari, dard, iztiroblari, orzu o'ylari ifoda etiladi. Oshiq timsoli o'tmish adabiyotidagi oshiq obrazidan farqli tarzda, zamon bilan hamnafasligi alohida qirralarga ega.

Shoir Habib Sa'dulla “Sevgi haqida” she'rida insonlar orasida bo'ladigan sevgi tuyg'usining sir-sinoati haqida kuylaydi. Dunyoda barcha narsaning jumbog'ini echish mumkin. Ammo

sevgining siru sinoatiga hech kim eta olmaydi. Shoir sevgini “goh zahmat, goh dard, goho baxt”, – deb ataydi. Insonni sevgi bilan tirikligini ta’kidlaydi:

Sevgi inson bilan birga tug’ildi,
Ataldi goh zahmat, goh dard, goho baxt.
Muhabbatsiz hayot sarob tuyuldi.
Inson sevgi bilan yashadi har vaqt.

Yuqoridagi satrlarda shoir muhabbatni tasvirlash uchun zahmat, dard, baxt, sarob kabi tushunchalarni bir tizimga jamlaydi. Betakror obrazli ifodalar: tarixning soqoliga oq tushganligi, insonning Oyga qadam qo’rganligi kabilar bilan muhabbatning azaliy va abadiyligini uyg’unlikda tasvirlaydi.

Shoir har qanday inson bu tuyg’uning asiriga aylanishiga ishonadi. Sevgi hech qanday qonunlarga bo’ysunmaydi. Agar sevgi qonunga bo’ysunganda edi, hayotning zarracha ma’nosi qolmasdi, deya ta’kidlaydi:

Kim qalb darvozasin ochmaydi unga,
Uning quyunida sovrilmaydi yo’?!
Deyman, bo’ysunganda sevgi qonunga,
Hayotda qolmasdi zarracha ma’no.

Shoir ba’zan sevgisi boshqalarga o’xshamaganligi uchun qattiqroq sevdimmikan, deydi. Agar boshqalarga o’xshamagan oddiy ayol bo’lganida shunchalik kuymasdim, deya o’ylanib qoladi:

Agar oddiygina bir ayol bo’lsang
Sohibjamol bo’lsang, barkamol bo’lsang,
Shirin maqom bo’lsang, lafzi bol bo’lsang,
Shuncha kuymasdim dog’ingda...

“Lirik qahramon” sevgisining ertakdagi pari va hurlarga mengzar ekan, la’lilab, tishlari dur bo’lganida, umrni yorituvchi nur bo’lganida kuylamasdim, deb zorlanadi. U sevgisiga sen sohibjamol ham, malak ham emassan. Balki sen cheki yo’q meni qurshab turuvchi falaksan, deydi. Dardlaring, ko’ngildagi dog’ing bilan menga keraksan. Dunyo borligidan daraksan, deya o’zini o’zi ishontiradi:

Yo’q, na sohibjamol va na malaksan,
Meni qurshab olgan cheksiz falaksan,
Dardu dog’ing bilan menga keraksan,
Dunyoda borimdan bir xush daraksan,
Hayotim totlidir xayol bog’ingda.

Oshiq bu yo‘lda jonini tikib sevadi, bu yo‘lning azobini rohat deb sevadi. Umr bo‘yi vasliga etishish ishtiyoqida abgor, gohida hushsiz, gohi hushyor, ba‘zan boy, ba‘zan nochor sevadi, kuyib yuragini dog‘laydi:

Bir umr vaslingga abgorlikni ham,
Goh behud, gohida hushyorlikni ham,
Boylilik, davlatni ham, nochorlikni ham,
Bir umr vaslingga xumorlikni ham,
Kuyib yurganidan dog‘ingda.

Shoirning “lirik qahramon”i, sochlariga oq oralagan bo‘lsa ham, muhabbat qo‘shig‘ini kuylaydi. Goho sevgilisi bilan uchrashgan kunlarini eslar ekan, dunyoga qayta kelgandek bo‘ladi. Shoir goho sevgilisi bilan uchrashganda, bahor bilan suhbat qurgandek bo‘ladi. Goho oshiq bo‘lib ma’shuqaning ertaga kelishini kutadi. Bir kunning o‘tishi ham bir umrga o‘xshab tuyuladi.

Shoirning “Seni sog‘inganda” deb nomlanuvchi she‘rida sevikli mahbubasini sog‘ingan oshiq va ikki qalbga vositachi bo‘lib turgan xat poetik timsoli ifodalangan. Oshiq uzoq yurtlarda sevgilisini sog‘inib maktublar yozadi. Maktub ham unga dildosh bo‘lib “Tezroq! Tezroq yoz!”deya shivirlaydi:

Seni dildan sog‘inib mahbub,
Yozar bo‘lsam sog‘inchli maktub,
Dil so‘zimga muntazir qog‘oz,
Shivirlaydi:
Tezroq! Tezroq yoz!

Maktub ham tilga kirib, tezroq oshiqning dil rozlarini ona shahri Namangandagi mahbubuasiga etkazishga oshiqadi.:

Kunduzimi, kechalarimi
Namanganning ko‘chalarini —
O‘tib borib topgil yorimni.

Quyidagi she‘rda esa oshiq uchun sevimli mahbubaning tashrifi uning butun dunyosini o‘zgartirib yubordi. Uning quchog‘iga baxt kirib keldi, xuddi “o‘n besh kunlik oy to‘lib” kelgandek bo‘ldi. Uyini nur va yorug‘likka to‘ldirmoqchidek, Quyoshning bir parchasi uzilib kirib kelgandek bo‘ldi:

Sen kelding —
Quchog‘imda go‘yo baxt kulib keldi.
Rosa o‘n besh kunlik oy to‘lib keldi,
Nurga burkamoq-chun dilim, kulbamni
Quyoshdan bir parcha uzilib keldi.

Mahbubaning ketishi esa uning hayotini yana o'zgartirib yubordi. Uning quvonchli onlarini bir zumda xotiraga aylantirdi Yorining xushbo'y hidi, sho'x kuyi, orzu va o'ylari oshiq uchun o'tmishga aylandi va qalbini o'rtadi:

Sen ketding —

Dimog'imda sening xush bo'ying qoldi.

Qulog'imda dildor, sho'x kuying qoldi.

Endi kelsang, aslo ketmagil deya

Dil ohimda orzung va o'ying qoldi.

Habib Sa'dullaning "Lahza" deb boshlanuvchi she'rida bir anjuman tasviri, undagi go'zal qizlarning ko'pligi lirik qahramon e'tiborini tortganligi, turfa gullarga burkangan ushbu anjumanda esa uning nigohi bir go'zal ra'noni izlayotganligi ifodalanadi:

Muncha go'zallar ko'p bu anjumanda,

Tarovat bazmiga chiqqanmi qizlar?!

Turfa gullarga boy ushbu chamanda

Tashna nigohim bir ra'noni izlar.

Shoirning nigohi o'zi izlagan insonini topa olmagach, bugungi tarovatli anjumanning fayzi ham yo'qolib bormoqda. Hatto gullar ham xazon ko'rinishiga kirgandek:

... Fayz yo'qolib borur bu anjumandan,

Ko'zimga tushmagach jonbaxsh ko'zlaring.

Gullar xazon bo'lib qoldi chamamda,

Mohim, ko'rinmagach porloq yuzlaring.

Shoir qalbi birdan yorishib ketadi. U o'ziga qarata "shukr", deya taskin beradi. Shoir boshiga tushgan bu "ko'rgulik" bir lahzalik ekanligini, u izlagan inson ham bu anjumanga tashrif buyurganini bilgandan keyin ko'ngil taskin topadi. Agarda ko'ngil gulzorini u istagan inson bezab turolmas ekan, uning butunlay xazon bo'lishiga ishora qiladi:

Shukr, bu ko'rgulik bir lahza, xolos,

Ixtiyor etmabsan bir anjumanim,

Xazon bo'lar ekan umrim ro'yi-rost,

Mangu bezatmasang qalbim chamanin.

Shoirning "Ertaga" deb boshlanuvchi she'ri ham "Sen kelding" deb boshlanuvchi she'riga mazmunan o'xshab ketadi. Oshiq ko'ngil sevgilisi kelishini eshitib, qalbi quvonchlarga to'ladi. Uning tashrifini oldindan tasavvur qiladi. Oshiq yor uning go'zal jamoli xonasini yoritib, nurga to'ldirishidan, u bilan uchrashish orqali uning visolga etisha olishidan umidvor. Yorning tashrifi oshiq uchun nafaqat bayram, balki to'ydek shodlik baxsh etishini tasvirlar ekan, qo'llari chirmovuk guldek yorning bo'yniga "chirmashishi"ni orzu qiladi:

Ertaga kelasan, malagim,
Xonamni yoritar jamoling.
Ertaga intiqdir yuragim,
Nasibam bo'ladi visoling.
Ertaga kelasan, malagim,
Tashrifing bayramu to'y menga.
Misoli chirmovgul palagi
Qo'llarim chirmashar bo'yningga.

Sevikli yorining ertaga kelishi lirik qahramon ko'nglidagi ayriliq azobini yo'qotadi, "sog'inch kitobini" yopadi. Uning ertangi tashrifini uning ko'zlari intizorlik ila kutadi, umid ila yo'liga boqadi:

Ertaga kelasan, malagim,
Chekinar ayriliq azobi.
Ijobat bo'lg'usi tilagim,
Yopilur sog'inchim kitobi.
Ertaga kelasan, malagim,
Ertani zor kutar ko'zlarim.

She'rda oshiqning yoriga bo'lgan cheksiz muhabbati, uning visoliga tashnalik va intizorlik, umidvorlik tuyg'ulari tashbeh, istiora, nido san'atlari orqali ishonarli va yorqin tasvir etilgan.

Shoirning "Men bugun" deb nomlangan she'ridagi oshiq ko'ngil kayfiyati endi boshqacha. Uning sochiga oq oralagan bo'lsa ham, u birinchi muhabbatini unutmagan. Uning kelishidan xursand bo'lgan qalb muhabbat qo'shig'ini kuylamoqda. Sevikli yorning barcha go'zal surati, ya'ni kalamqoshligi, xushsurati, g'uncha shaklidagi dudog'i ko'z o'ngida namoyon bo'ladi. O'tgan yillardagi barcha azoblari, taqdir ayblarini uning kelishigina unut qilib yuborali. Oshiq huzuriga uning kelishi nur va gul yanglig' xushbo'ylik qadam ranjida qilgan mahbubaning tashrifi bahorning kelishi bilan hamohang. Shu bois birinchi muhabbat tashrifini shoir jo'shqin satrlarda kuylaydi:

Nur bo'lib, gul bo'lib kelyapti,
Xush bo'yin ufurib dimoqqa.
Marhabo, azizam, marhabo,
Izmingda qolgumdir to abad —
Ey, qayta tug'ilib har bahor,
Kuylatgan birinchi muhabbat!

Shoirning "Siz bilan uchrashgan kunlarim" nomli she'ridagi lirik qahramonning ichki his-tuyg'ulari oshkora ifoda etiladi. Uning ko'tarinki kayfiyati kitobxon qalbiga ham ta'sir qiladi.

Inson o‘zi xohlagan insonini ko‘rganida, u bilan suhbat qurganida, xuddi bu dunyoga qaytadan kelgandek bo‘ladi. Uning nazarida o‘zini bu dunyoga shoh bo‘lgandek sezadi:

Qaytadan kelaman dunyoga

Siz bilan uchrashgan kunlarim.

Go‘yo shoh bo‘laman dunyoga,

Siz bilan uchrashgan kunlarim.

U sevgan insoni bilan uchrashganida butun koinot uning izmida, oftob, nur uning jismida, u qo‘rqmas, u botir, u pahlavon va jasurdir:

Oftob joy topar jismimda,

Koinot misoli izmimda.

Qo‘rqmayman hech ofat, hech kimdan,

Siz bilan uchrashgan kunlarim.

Sevikli kishisining uchrashuvi oshiq ko‘nglini yanada “nurafshon” aylaydi. Go‘yoki ona zamindan g‘amu anduh ko‘tariladi. Hattoki, “iblis” ham bunday quvonchni, beg‘uborlikni ko‘rib “insofga” kelgandek tuyuladi.

Nazdimda nurafshon bu olam,

Zamindan chekingay alam, g‘am.

Insofga kelganday iblis ham,

Siz bilan uchrashgan kunlarim.

Lirik qahramon qalbi shu darajada to‘lib toshadiki, uning his-tuyg‘ulari qalbida qo‘shiq bo‘lib “qaynay”di va bu tuyg‘ular oshiq tilida qo‘shiqqa aylanadi. Buni ko‘rgan boshqa oshiqlar ham unga qo‘shilib jo‘r bo‘lib kuylay boshlaydilar:

Dilimda qaynaydi qo‘shiqlar,

Tilimda yangraydi qo‘shiqlar.

Jo‘r bo‘lar jamiki oshiqlar,

Siz bilan uchrashgan kunlarim.

Muhabbatning qudrati shu darajada kuchliki, butun olamni pok, beg‘ubor hislarga to‘ldirib yuborishga, xushbo‘y hidlarni tarqatishga qodirdir:

Olamni egallar pok hislar,

Olamga taralgay xush islar,

Muhabbat qudratin ko‘z-ko‘zlar,

Siz bilan uchrashgan kunlarim.

She‘rning so‘nggi misralarida sevgini bu dunyoning tirgagiga, sadoqatni yo‘rgakka qiyoslaydi:

Sevgi bu dunyoga tirgakdir,

Sadoqat misoli yo'rgakdir.

Umrimga benazir bezakdir,

Siz bilan uchrashgan kunlarim.

Habib Sa'dulla yaratgan go'zal ayol, mehribon ona, vafodor yor, ba'zan beqaror va bevafo sanam qiyofasidagi ayol timsollari orqali ijodkorning obraz yaratish mahorati, individual uslub qirralari yaqqol ko'zga tashlanadi.

Ushbu maqolada Habib Sa'dulla ijodining tematik va badiiy jihatlari tahlil qilindi. Shoir lirikasida ona, ayol, muhabbat, Vatan va insoniy tuyg'ularning o'rni, ularning ruhiy noziklik va samimiylilik bilan ifodalanishi yoritildi. Tadqiqot shoirning badiiy uslubi, obrazlar tizimi, metafora va ramzlardan foydalanish mahorati, shuningdek, uning poetik tafakkurining o'zbek adabiyoti an'analari bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Natijada Habib Sa'dulla lirikasining zamonaviy o'zbek she'riyati rivojiga qo'shgan hissasi ochiqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Жўраев Х. Лирикада анъанавийлик ва ўзига хослик. – Тошкент, Фан, 2004. – 148 б.
2. Жўраев Х. Лирик қаҳрамон ва муаллиф шахсияти. – Тошкент: Фан, 2008. – 80 б.
3. Жумахўжа Н. Рамзи ҳақиқат эрур ишқи мажоз. // Ғойиблар хайлидан ёнган чироқлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – Б. 297.
4. Мамажонов С. Ранглар ва оҳанглар. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 240 б.
5. Саъдулла Х. Танланган асарлар. 2 жилдлик, 1-жилд. – Тошкент: Шарқ, 2002.